

Oziq-ovqat texnologiyasi va
muhandisligi xalqaro instituti rektorining

2023 yil ” 04 ” “sentyabr”

2 V/O -sonli buyrug‘iga

ILOVA

**Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro institutining
Sovg‘alar va ish jarayonida mehmondo‘stlik belgilari to‘g‘risidagi**

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. “Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti” ning (keyingi o‘rinlarda - Institut) “Sovg‘alar va ish jarayonida mehmondo‘stlik belgilari to‘g‘risidagi nizomi” (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga, “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” xalqaro standartlariga (ISO 37001:2019), “Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti” da korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosat”iga, “Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti” Ustavi va ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom uzoq muddatli biznes munosabatlari ishonchi, o‘zaro hurmati va hamkor tashkilotlarning muvaffaqiyatiga asoslanadi. Qonun va biznes etikasi tamoyillarini buzgan, Institutning obro‘sig va xodimlarining halol nomiga, shuningdek Institutning manfaatlarini ifodalovchi yoki uning nomidan harakat qiladigan shaxslarga zarar yetkazadigan munosabatlar Institutning barqaror uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlay olmaydi. Bunday munosabatlar Institut faoliyatida qo‘llanilmasligi zarur.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

sovg‘alar – Institut xodimlari tomonidan Institut nomidan yoki Institut manfaatlarini ifodalash jarayonida yoki Institutdagi faoliyati bilan bog‘liq holda bepul taqdim etiladigan yoki qabul qilinadigan har qanday quyidagi qimmatliklar:

sovg‘alar, tovarlar, uskunalar;

shaxsiy chegirmalar, pul mukofotlari yoki kompensatsiyaning boshqa shakllari; naqd pul, to‘lovlar, kreditlar yoki pul ekvivalentlari (sovg‘a sertifikatlari, sovg‘a kuponlari); magazinlarning diskont kartalari; qimmatli qog‘ozlar, aksiyalar, korxonalaridagi ulushlar;

bepul xizmatlar (sug‘urta, o‘quv to‘lovlari, ta‘mirlash yoki sozlash ishlari va boshqalar); **ish jarayonidagi mehmondo‘stlik belgilari** – Institut va hamkor tashkilotlar manfaatlaridan kelib chiqilgan holda o‘zaro hamkorlik o‘rnatish va/yoki qo‘llab-quvvatlashga aloqador xarajatlar, shu jumladan ishbilarmonlik bilan bog‘liq biznes nonushta (tushlik va kechki ovqat), transport va turar joy xarajatlarini qoplash bilan bog‘liq xarajatlar, madaniy tadbirlar uchun chipta yoki taklifnomalar va h.k.; **rasmiy tadbir** – rasmiy xizmat safari davomidagi uchrashuvlar va boshqa tadbirlar, shu jumladan konferensiyalar va h.k., hamda Institutga tashrif buyurgan rasmiy delegatsiyalar a‘zolari, korxonalar mutaxassislari bilan uchrashuvlar va muzokaralar.

II. Biznes sovg‘alar va ish jarayonida mehmondo‘stlik belgilari almashish asosiy tamoyillari

4. Biznes sovg‘alar va ish jarayonida mehmondo‘stlik belgilari almashish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

Institutning barcha xodimlari uchun biznes sovg‘alarini berish va qabul qilish, rasmiy tadbirlarni tashkil etish va ularda ishtirok etish bo‘yicha yagona talablarni belgilash; biznes sovg‘alar va ish jarayonida mehmondo‘stlik belgilarini berish

jarayonida suiiste‘molchilik bilan bog‘liq xatarlarni minimallashtirish;

Institutning iqtisodiy faoliyatini faqat raqobatni himoya qilish va yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatish hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish tamoyillariga asoslangan holda tegishli me'yorlar va biznes yuritish qoidalari asosida amalga oshirish; biznes sovg'alari, ishbilarmonlik mehmondo'stligi va rasmiy tadbirlar faqat biznes aloqalarini o'rnatish va yuritish vositasi sifatida hamda Institut faoliyatini yuritishda umum e'tirof etilgan ishbilarmonlik tamoyillarining namoyon bo'lishi nazarda tutilgan madaniyatni qo'llabquvvatlash.

III. Biznes sovg'alari va ish jarayonida mehmondo'stlik belgilari taqdim etish talablari

5. Biznes sovg'alari va ish jarayonida mehmondo'stlik belgilari qabul qilinishi va taqdim etilishi quyidagi talablar asosida amalga oshirilishi zarur:

biznes sovg'alari va ish jarayonida mehmondo'stlik belgilari faqat Institut nomidan ko'rsatilishi; .

biznes sovg'alari va ish jarayonida mehmondo'stlik belgilari qimmatbaho bo'lmasligi;

biznes sovg'a oluvchi uchun uning lavozim yoki xizmat vazifalarini sovg'a beruvchining manfaatlari nazarda tutilgan holda hamda Institut manfaatlariga zid ravishda bajarish bilan bog'liq majburiyatlarni yaratmasligi;

biznes sovg'a oluvchi uchun ushbu sovg'a uning xizmatlari uchun yashirin mukofot sifatida bo'lmasligi, uning harakat yoki harakatsizligi, kelishuv yoki homiyliqi, huquqlarni berish yoki muayyan qarorlarni qabul qilish yoki boshqa noqonuniy yoki axloqiy bo'lmagan maqsadda ta'sir ko'rsatmasligi;

Institutning obro'siga putur yetkazadigan xavf yaratmasligi;

Institutning korrupsiyaga qarshi siyosati prinsiplari va talablariga hamda boshqa lokal hujjatlariga, umum e'tirof etilgan axloq-odob normalariga zid bo'lmasligi;

naqd pul va naqd pulsiz ko‘rinishda, qimmatli qog‘ozlar, qimmatbaho metallar, shuningdek pul ekvivalentlari (sovg‘a sertifikatlari, sovg‘a kuponlari) shaklida bo‘lmasligi; amaldagi qonunchilik, Institutning korrupsiyaga qarshi siyosati, axloq-odob kodeksi va boshqa lokal hujjatlari, umum qabul qilingan axloq-odob normalarining tamoyillari va talablariga zid bo‘lmasligi;

Institut xodimlari biznes sovg‘alar almashish va ish jarayonida mehmondo‘stlik belgilarining maqbul chegaralarini tushunishlari kerak.

6. Biznes sovg‘a biron-bir harakat yoki harakatsizlikni amalga oshirish uchun rag‘bat sifatida, shuningdek Institut manfaatlariga zid bo‘lgan biznes qaror qabul qilish maqsadida taqdim etilishi yoki qabul qilinishi mumkin emas.

7. Xalqaro konferensiyalarda, simpoziumlarda va boshqa xizmatga oid ishbilarmonlik yig‘ilishlarda Institut nomidan sovg‘alar berish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

IV. Sovg‘alar va ish mehmondo‘stlik belgilari qabul qilish talablari

8. Institut xodimlari tomonidan o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg‘a yoki mehmondo‘stlik belgilari, qarz, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar shaklida rag‘batlantirish vositalari, naqd pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida va h.k. moddiy yordam qabul qilinishi taqiqlanadi.

9. Institut xodimlari tomonidan rasmiy delegatsiyalar tarkibida, rasmiy tadbirlarda, jumladan xorijdagi tadbirlarda olingan har qanday sovg‘alar (summasidan qat’i nazar) Institutning mulkiga o‘tkaziladi.

10. Institut tomonidan xodimlarga ularning shaxsi bilan bog‘liq bayram kunlarida (yubiley sanalari, tug‘ilgan kun, nikoh, farzand tug‘ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni va hakazo) berilgan, xizmat

majburiyatlarini bajarishga bog'liq bo'lmagan sovg'alar - xodimning shaxsi bilan bog'liq sovg'alar deb tan olinadi.

Bunday sovg'alarni berishda quyidagi talablarga rioya qilinishi lozim:
sovg'alar Institutning kamida uch nafar xodimlari ishtirokida berilishi;
sovg'a berish jarayoni tabrik nutqi bilan birga bo'lishi, unda sovg'a berishga sabab bo'lgan voqea o'zining aniq ifodasini topgan bo'lishi; sovg'aning umumiy qiymati (barcha soliqlar va yig'imlarni hisobga olgan holda) 10 (o'n) bazaviy hisoblash miqdoridan oshmasligi.

11. Institutning har bir xodimi shaxsi bilan bog'liq bayram kunlarida jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan har qanday ko'rinishdagi sovg'a yoki boshqa ko'rinishdagi moddiy boyliklarning Institut faoliyati bilan bog'liq shartnomalar tuzish bilan bog'liq muzokaralar o'tkazishda qabul qilinishi qat'iy taqiqlanadi.

12. Sovg'a qabul qilinishing qonuniyligiga shubha tug'ilgan har qanday holatda xodimlar o'zining bevosita raxbariga yoki kompleans nazorat bo'limiga maslahat so'rab murojaat qilishi lozim.

V. Yakuniy qoidalar

13. Institut korrupsiyani qabul qilmaydi. Sovg'alar taqdim etilishi pora berish va olish hamda korrupsiyaning barcha ko'rinishlari yo'nalishida foydalanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

14. Mazkur nizom institut xodimlari va professor-o'qituvchilari uchun majburiydir

15. Mazkur nizom va unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar institut Kengash bayoni bilan tasdiqlanadi.